

**TURLI YOSH KATEGORIYALARIGA CHET TILLARINI O'RGATISHDA
YANGI PED TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.**

Abdunaimova Mehrangiz Axmadjonovna.

*Samarqand davlat chet tillari instituti Ingliz tili 1 fakulteti Xorijiy til va
adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Ilmiy raxbar: Nafisa Axmatillovna Ibadova.

Annotatsiya: "Til bilgan-el biladi" deganlaridek rivojlayotgan O'zbekistonda ko'pchilik talaba yoshlar, o'quvchilar va bolalar ham xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishmoqda. Jumladan, ingliz tili dunyodagi xalqaro tillardan hisoblanib, ushbu tilni o'rganish ommalashmoqda. Ushbu maqolada xo'jiriy tillarni o'rganishda yangi ped texnologiyalarning tutgan o'rni, ahamiyati va vazifalari haqida ayrim ma'lumotlar berib o'tildi.

Kalit so'zlar: ped texnologiyalar, ko'rgazmali metodlar, interfaol o'qitish tizimi, audio materiallar, o'yinlar.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda, ingliz tili 500 milliondan ko'proq kishining asosiy muloqot tili bo'lib, yana 1 milliard 300 millionga yaqin inson uchun ikkinchi til hisoblanadi. Internet resurslarining 90 foizi ingliz tilida. Barcha sohalardagi ma'lumotlarning asosiy qismi birinchi bo'lib ingliz tilida paydo bo'ladi. Bu fan, aviatsiya, kompyuterlar, diplomatiya va turizm tili. Va nihoyat, bu xalqaro muloqot, ommaviy axborot vositalari va internet tilidir. Bu professional yoki shaxsiy sabablarga ko'ra bo'ladimi, ingliz tilining ahamiyatini tushunish maqsadlaringizga erishishingizga yordam beradi.

Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir.[¹].

Pedagogik texnologiyaning vazifalari :1.Diagnostika. 2.Ta'lim tizimini differensiallashtirish. 3.Ta'limni loyihalashtirish 4.Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish .

Bugungi kunda tillarni o'rganishda yangi ped texnologiyalardan foydalanish juda ham samarali usul hisoblanib, ular o'z ichiga no'ananaviy metodlar,o'yinlar va interfaol metodlarni o'z ichiga oladi. Interfaol metodlar -ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro faoliyatini ta'minlovchi, ularni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan metodlardir.[²].

Dasr mashg'lotlari davomida interfol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishga va o'quvchilarni mashg'ulot davomida faol bo'lishlikka, tillarni tez va oson o'rganishiga, eng asosiysi til o'rganuvchilarni mustqail fikrlashga o'rgatadi. Quyda ayrim interfaol metod turlariga misollar berib va ular yoritilib berildi.

“Yashirin so'zni toping” metodi-talabalarga yangi so'zlarni eslab qolishlariga qanday yordam bera olasiz? So'z birikmasi o'yinini sinab ko'ring, Yashirin so'zni toping. Birinchidan, so'zni o'ylab ko'ring, so'ngra talabalarga shu bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni ayting. Siz o'ylayotgan so'zni taxmin qilish uchun ular o'zlarining mavjud lug'atlaridan foydalanishlari kerak. Ya'ni o'sha so'zni ifodalaydigan ranglar, belgilar yoki harakatlarni ingliz tilida aytishingiz kerak bo'ladi. Misol uchun, agar maxfiy so'z "shaftoli" (peach) bo'lsa, siz "pushti" (pink) deb aytishingiz mumkin. Keyin ular "flamingo" kabi narsani taxmin qilishlari mumkin va siz ularga bu aloqasi yo'qligini aytasiz. Ammo ular "guava" kabi so'zlarni aytganda, bu maxfiy so'z bilan bog'liqligini aytishingiz mumkin.

“Proof it” - o'yini ingliz tilini o'rganishda eng ko'p qo'llaniladigan o'yin turi hisoblanib, bu o'yin asosan intermediate (o'rta darajadagi) o'quvchilarga mo'jallangan. O'yinning asosiy maqsadi o'quvchilarda ingliz tili grammatikasi va so'z boyligini tekshirish uchun qo'llaniladi. O'yin quydagicha boshlanadi: har bir o'quvchiga 10 yoki 15 ta turli xil darajadagi so'zlar beriladi. Har bir so'zda grammatik, spelling yoki punktaksion xatolar berilgan bo'ladi. Masalan grammatik xato (he are playing emas he is playing) spelling xato (aprikot emas apricot) kabi xatoliklarni o'quvchilar qisqa vaqt ichida topib to'g'irlab yozishlari kerak.

“Sinonimlar o'yini”-Barcha yoshdagilar uchun eng yaxshishi o'yin hisoblanib, juda ham foydalidir. O'zini va so'z boyligini sinab ko'rmoqchi bo'lgan ilg'or o'quvchilar bilan bu o'yin yanada qiziqarli bo'ladi. O'yin quydagicha o'ynaladi: Talabalaringizga tanish bo'lgan oddiy so'zni kiriting - bu bir nechta sinonimga ega bo'lgan so'z bo'lishi kerak, Masalan: Bo'sh vaqt (spare time, free time or extra time) tarzida so'zlar aytiladi. Eng ko'p sinonim topgan o'quvchi g'olib bo'ladi. Bu o'yining foydali ahmiyati ingliz tilidagi sinonim so'zlarni o'rgatish va takrorlatish.

“Yozma bahslar” metodi-Bu metod o'quvchilarga o'quv xonasidagi tengdoshlari bilan birgalikda shu onda jamoatchilik fikrini to'lqinlantirayotgan mavzularda muloqotlarni rejalashtirish imkonini beradi. Uslub o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratish, munozara madaniyatini o'rgatish va o'z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlatirishga xizmat qiladi. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: O'quvchilar bahs mavzusi bilan oldin o'tkazilgan mashg'ulotda tanishadilar. Bahs arafasida o'qituvchi bo'lajak mavzu to'g'risida o'quvchilarga axborot berar ekan, bahslar qay yo'sinda o'tishini qisqacha tushuntiradi (bu, albatta, bahslar birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, juda ham muhimdir). O'qituvchi guruh o'quvchilarini ikkiga ajratadi va ularni o'quv xonasining ikki

tomoniga qator qo'yilgan stollar atrofiga yuzma-yuz holatda o'tkazadi va har bir guruh qatnashchilari qaysi nuqtayi nazarni himoya qilishlarini belgilaydi (masalan, 1 -guruh – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari, 2-guruh – bunga qarshilar). Shundan so'ng o'qituvchi O'quvchilarni juftliklarga ajratadi, har bir juftlikda qarama-qarshi qarashlar tarafdorlari bo'lishi kerak. Juftliklarni tartib raqami yoki alifbo harflari bilan belgilanadi. Agar o'quv xonasida o'quvchilar soni toq bo'lsa, o'qituvchi munozaraga yetishmagan sherik huquqida qatnashishi mumkin. O'qituvchi 1-guruh o'quvchilariga (keltirilgan misolda – ijobiy holat joriy qilinishi tarafdorlari) har bir juftning raqami (harfi yoki ramzi) bilan belgilangan katak qog'oz varaqlarini tarqatadi. O'quvchilar o'quv xonasining ikki tomonida o'tirib, juftma- juft yozma muloqotni boshlaydilar. 1-guruh o'quvchilariga o'zlari maqullayotgan nuqtai nazar foydasiga bitta ochiq dalilni shakllantirish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ular bu dalilni qog'oz varag'iga puxta tahrir qilingan paragraf shaklida yozadilar. Bu vaqtda 2-guruh o'quvchilari o'zlari bahs jarayonida bayon etishlari mumkin bulgan nuqtayi nazarlarini isbotlashlari mumkin. Bahslarni samarali yakunlashning eng qulay shakli – ikkala tomonga qaratilgan savoldir: “Qarshi tomonning eng yaxshi dalil- isbotlari qaysilar bo'ldi?” Har ikkala tomon vakillari qarshi taraf yozgan fikrlarni o'qib yuqoridagi savolga javob beradilar.[³].

Xulosa qilib aytganda, ushbu metodlar orqali dars o'tilsa, darslar barcha uchun tushunarli bo'lishi va o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishni orttirishga imkon yaratadi. Yangi ped texnologiyalardan foydalanish o'quvchilar va o'quvchilarning ham ma'lumotlar bilan faol ishlashini, talabalarda ijodiy, mantiqiy, tanqidiy va do'stona munosabatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogik texnologiya turlari — O'qituvchilar uchun turli xil qiziqarli ma'lumotlar <http://manzura90.zn.uz/pedagogik-texnologiya-turlari/>.
2. Sinfda o'ynash uchun 17+ qiziqarli o'yinlar | 2023 yilda barcha sinflar uchun AhaSlides <https://ahaslides.com/uz/blog/17fungamestoplayinclasallgIH4Ah17fungamestoplayinclasallgIH4AhXiyDgGHeBIDZwQFnoECAw>.
3. <http://shuhratbek.uz/yoyma-bahslar-metodi/>.
4. <https://www.fluentu.com/blog/english/games-to-learn-english/>.